

"O'zkimyosanoat" AJ va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi "Maxamcorp" S.L. tomonidan qo'yilgan asossiz arbitraj da'volarini rad etadi va ularning qarshi da'volari qanoatlantirilishiga umid bildiradi

// 05.04.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/maxamcorp-international>



"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati (Jamiyat) va O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (Agentlik) tomonlar o'rtasida o'tkazilgan muzokaralarga qaramay, vositachilik uchun dastlabki shartlarsiz "Maxamcorp" S.Lning arbitraj da'volari kiritganligi to'g'risidagi bildirishnomalarni olganidan hayratda va kompaniyaga nisbatan hafsalasi pir bo'lganligini ma'lum qiladi.

Haqiqatdan ham, "Maxamcorp International" S.L. ("Maksam") ispan kompaniyasi, 2007-yilda "O'zkimyosanoat" AJ bilan birgalikda 2 ta qo'shma korxona – "Maksam-Chirchiq" AJ va "Ammofos-Maksam" AJlarni tashkil etgan.

Ta'kidlash joizki, "O'zkimyosanoat" AJ va Agentlik qayd etganidek, qabul qilingan majburiyatlarga

qaramay, "Maksam" kompaniyasi investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan va hozirda ularni bajarishdan bosh tortmoqda. O'z navbatida, "O'zkiyosanoat" AJ va Agentlik "Maksam" kompaniyasining shartnoma munosabatlarini buzganlik haqidagi asossiz ayblovlarni qat'iyon rad etadi.

Ikki qo'shma korxona qariyb o'n besh yildan buyon muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. "Maksam" tomonidan qo'zg'atilgan da'volar shartnoma majburiyatlarini buzganliklarini yashirish va noto'g'ri boshqaruv, samarasizlik, sarmoya kiritmaslik va O'zbekiston qonunchiligiga rioya qilmaslik uchun javobgarlikdan qochishdan boshqa narsa emas.

"Maksam" kompaniyasi tomonidan investitsiya majburiyatlarini bajarmaslik qo'shma korxonalar faoliyatiga va modernizatsiya va kengaytirish qobiliyatiga sezilarli darajada to'sqinlik qiladi. "O'zkiyosanoat" AJ va Agentlik ham tomonlarning savollari va pozitsiyalari sir saqlanishi lozim bo'lgan bir paytda, "Maksam" kompaniyasi o'z da'volarini oshkor qilganidan hayratda.

Aksincha, "O'zkiyosanoat" AJ va Agentlik:

- Har doim birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi tegishli kelishuvlarga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ish yuritgan hamda hech qanday shartnoma yoki boshqa majburiyatlarni buzmagani;
- "Maksam" kompaniyasi bilan kelishmovchilikni do'stona va vijdonan hal qilish tarafdori bo'lgan va hozir ham shunday;
- Biz har doim barcha faoliyatimizda inson va mehnat huquqlarini hurmat qilish va himoya qilishga intilib kelganmiz.

Shu o'rinda, "O'zkiyosanoat" AJ va Agentlikning ham "Maksam" kompaniyasiga qarshi da'volari bor.

Qayd etish lozimki, "Maksam" kompaniyasi o'zining butun faoliyati davomida qo'shma korxonalar faoliyatini yaxshilashga qaratilgan ishlarni amalga oshirishni emas, faqatgina dividendlar olishni ko'zlagan. Vaholanki, "Maksam" kompaniyasining majburiyatlari qo'shma korxonalarni modernizatsiya qilish va zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, ishlab chiqarish uskunalarini takomillashtirish va texnik yordam ko'rsatishni qamrab olgan. Biroq, "Maksam" kompaniyasi o'z majburiyatlarini bajarmadi. Buni 2022-yil oktabr oyida "Maksam-Chirchiq" aksiyadorlik jamiyati zavodida yuz bergan eskirgan uskunaning avariyesi ham tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda qo'shma korxonalar faoliyatidan olinadigan foyda sezilarli darajada oshgani, mavjud quvvatlar modernizatsiya qilinib, faoliyatda yaxshilanishlar kuzatilayotganini alohida ta'kidlash lozim. Bunga esa investor va uning vakillari ishtirokisiz faqat O'zbekiston tomonining sa'y-harakatlari evaziga erishildi.

"O'zkiyosanoat" AJ va Agentlik barcha mavjud bahsli masalalar qonuniy hal etilishiga umid bildiradi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston tomoni "Maksam" kompaniyasining da'volari bo'yicha huquqiy pozitsiya tayyorlamoqda va ular belgilangan tartibda taqdim etiladi.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati